

YOSHLAR MA'NAVIYATIGA INTERNETNING SALBIY TA'SIRI

Valiyeva Adiba Alisherovna

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada internet tarmog'ining yoshlar ma'naviyatiga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'siri ijtimoiy hamda ma'naviy jihatdan tahlil qilinadi. Axborotlashgan zamonda turli xil kontentlarning yoshlar ongiga ta'siri, ularning dunyoqarashi va qadriyatlariga qanday o'zgarishlar kiritayotgani yoritib beriladi. Shuningdek, internetdan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirishning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: internet, yoshlar, ma'naviyat, axborot, ijtimoiy tarmoqlar, ong, tarbiya, qadriyatlar, zamonaviy texnologiyalar, axborot xavfsizligi.

“Bugungi globallashuv va axborotlashuv asrida hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, yoshlar bilim olish, muloqot qilish, va axborot almashishda ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanmoqda. Biroq, bu jarayonning ijobiy jihatlari bilan birga, uning yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'siri ham tobora sezilmoqda. TikTok, Instagram kabi platformalar yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularning vaqtini va e'tiborini o'g'irlamoqda. Raqamli texnologiyalar shaxsiy, iqtisodiy, va ijtimoiy hayotimizga chuqur kirib bordi. Ijtimoiy tarmoq — bu qiziqishlari o'xshash odamlar o'rtasida muloqot, ko'ngilochar va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platformadir. Ijtimoiy tarmoqlar internetga 1995- yilda kirib kelib, 2003-2004 yillarda keskin ommalashdi. Jamiyatshunos Sherri Terkl “Alone together” nomli kitobida “Ijtimoiy tarmoqlardagi suhbatlar insoniylikni barbod qilayotgan ahmoqlikning yangi shaklidir.”- deya ta'kidlaydi. Darhaqiqat, virtual olam haqiqiy insoniy his-tuyg'ularni o'rnini bosa olmaydi. "Layk"lar va "podpischik"lar ketidan quvish yoshlarda soxta muvaffaqiyat hissini uyg'otadi. Bu esa real hayotdagi muvaffaqiyatsizliklarga bardosh bera olmaslik (past irodalilik) va virtual qaramlikni keltirib chiqarmoqda. Raqamli dunyoda odamlar o'z hayotlarining faqat eng chiroyli, bo'rttirilgan tomonlarini ko'rsatishadi, bu esa kuzatuvchi yoshlarda "mening hayotim qiziqarsiz" degan nosog'lom fikr va depressiyaga zamin yaratadi. Shu bois, axborot jamiyatida samarali ishtirok etishi uchun «raqamli savodxonlik», va «media madaniyatini» shakllantirish zarur. Bunday an'ana mazkur yo'nalishda izlanishlar olib borilishiga ortib borayotgan qiziqishdan va zamonaviy jamiyatning shiddat bilan o'zgarib borayotganidan dalolat beradi. Mamlakatimiz va dunyo miqyosida sodir




bo'layotgan o'zgarishlar, voqea-hodisalar, yangiliklar to'g'risidagi ma'lumotlar barcha ijtimoiy tarmoqlarda aks etib boryapti.

Bu yangiliklardan xabardor bo'lishda esa internet tizimi, mobil telefonlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ancha qulay hisoblanadi. Internetning yoshlar hayotidagi o'rnini tobora ortib borayotganini statistik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar ulushi so'nggi yillarda keskin oshib, 2025-yilga kelib 94% dan ortiq aholini qamrab oldi. Bu ko'rsatkich deyarli butun jamiyat raqamli muhitga kirganini anglatadi. Ayniqsa, Telegram (28 millionga yaqin foydalanuvchi), Instagram va TikTok yoshlar orasida eng ommabop platformalar tarmoqlar hisoblanadi. Internetning ijobiy tomoni — tezkor axborot va onlayn ta'lim imkoniyatlarida bo'lsa, salbiy tomoni — diqqatning pasayishi, vaqtni behuda sarflash va ishonchsiz ma'lumotlar oqimidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, cheksiz "short video"lar yoshlarning fikrlash doirasini qisqartirishi, diqqatni jamlash qobiliyatini pasaytirishi va milliy qadriyatlardan uzoqlashtirishi mumkin. Ommaviy madaniyat oqimi ta'sirida yoshlar orasida ma'naviy bo'shliq yuzaga kelishi xavfi bor. Bu platformalarda axborotning tezkorligi mazmuni ustidan g'olib kelmoqda. Natijada, yoshlar chuqur tahlil qilinmagan, yuzaki va ko'pincha zararli kontentlar ta'siriga tushib qolmoqda. Milliy mentalitetga yot bo'lgan "trend"lar, behayo tasvirlar va yengil-yelpi hayot tarzi targ'ibi o'sib kelayotgan avlodning dunyoqarashini buzmoqda. Shu sababli, yosh avlodda ma'naviy immunitetni shakllantirish, ularni zararli axborotlardan himoya qilish zamon talabidir. Bunda oilaviy tarbiya va ta'lim muassasalarining roli beqiyos. Ota-onalar va o'qituvchilar yoshlarni foydali kontentga yo'naltirishi lozim. Ma'naviy immunitet — bu axborot xurujlariga qarshi tura olish, oqni qoradan ajratish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ko'nikmasidir. Yoshlarimizda "internetdan qanday foydalanish kerak?" degan savol emas, balki "internetdagi qaysi axborot menga zararli, qaysi biri foydali?" degan tahliliy fikrlash shakllanishi shart. Xulosa qilib aytganda, internet — zamonaviy taraqqiyot vositasi. Undan ongli va maqsadli foydalanish yoshlarning intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi. TikTok va Instagram kabi platformalardan faqat ko'ngilochar emas, balki bilim manbai sifatida foydalanish, ya'ni "nur ustiga a'lo nur" bo'ladigan tarzda me'yorini topish — asosiy maqsad bo'lishi kerak. Raqamli texnologiyalar bizning qulimiz bo'lishi kerak, biz esa — ularning emas. Shunday ekan, axborot asrida yashab, uning salbiy ta'sirlaridan o'zimizni, ma'naviyatimizni va kelajagimizni asrash har bir yoshning burchi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. (Yoshlar tarbiyasi va ma'naviyat haqidagi qismlari uchun).



- 
2. Sherri Turkle. “Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other”. – Basic Books, 2011. (Matnda keltirilgan ijtimoiy tarmoqlar va insoniy munosabatlar haqidagi fikrlar uchun).
 3. To‘ychiyeva S. “Media savodxonlik va axborot madaniyati”. – Toshkent, 2019.
 4. Quronov M. “Ma’naviy tarbiya asoslari”. – Toshkent: “Akademnashr”, 2015.
 5. 5.Kastels M. “Informatsionnaya epoxa: ekonomika, obshchestvo i kultura”. – Moskva: HSE Publishing House, 2000. (Raqamli jamiyat shakllanishi haqida).
 6. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi rasmiy hisoboti (2024-2025 yillar uchun statistik ma’lumotlar).

